O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

10.00.01 – “O‘ZBEK TILI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA (PhD) KIRISH IMTIHONI DASTURI

Andijon – 2026

KIRISH

Mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim sohasida juda katta davlat siyosati va islohotlari olib borilayotganligini ta’kidlash lozim. Oliy ta’limni takomillashtirish va rivojlantirish, zamonaviy talablarga mos ta’lim tizimini yaratish va kadrlami tayyorlash borasida qabul qilinayotgan qonun, farmoyish va qarorlar dunyo va mahalliy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilayotganligi, ushbu yo‘nalishda ilmiy ishlarga bo‘lgan qiziqishni ham oshirayotgar ligini ko‘rishimiz mumkin. Olib borilayotgan tadqiqotlarda ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining marketing, moliyaviy va iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirjlmoqda.

Mustaqil izlanuvchilik (PhD) uchun 10.00.01 – “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ulaming mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida tayyorlandi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, kasbiy innovatsion

faoliyatga tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish, yangilikka intiluvchan, innovasion faoliyat bilan shug‘ullana oladigan yuksak salohiyatli kadrlami tayyorlash, innovasion faoliyatni takomillashtirish, kasbiy faoliyat yo‘nalis ilari qamrovini kengaytirish, kasbiy innovasion faoliyatlarni rivojlashtirish hamda moddiy-texnika bazani kengaytirishning me’yoriy huquqiy asoslari yaratilmoqda.

“Iqtidorli va iste’dodli yoshlami qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish”, “Salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli dasturlami ishlab chiqish va tasdiqlash” ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur dastumi tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan mutaxassis kadrlar tayyorlash ishini tubdan qayta qurish, oliy ta’limni tubdan isloh qilish ishini jadahashtirish borasida qo‘yilgan vazifalar, jumladan “Oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalari professor- o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish” masalalari hisobga olindi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan sharoitda oliy ta’lim yo‘nalishlaii va ixtisosliklari bo‘yicha mutaxassislami tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hozirgi zamon dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Yuqori malakali mutaxassislami tayyorlashni kengaytirish bilan bir vaqtda oliy ta’lim tizimini tubdan yaxshilash, isloh qilish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa, birinchi navbatda, oliy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qi:iladigan maxsus fanlaming mazmuni va o‘quv dasturlarini xalqaro andozalarga noslashtirishni talab qiladi. Ta’lim sifatini yanada takomillashtirish, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qitish sifatini ta’minlash, etuk mutaxassislami tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo‘nalishdagi o‘quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash hozirgi paytda davr talabiga aylanib bormoqda. Ushbu dastur oliy ta’limdan keyingi ta’limda ilmiy pedagogik kadrlami tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, zamoraviy mutaxassislami kasbiy faoliyatida

foydalanish uchun uni o‘zlashtirishga qaratilgan. Oliy ta’limdan keyingi ta’limda bo‘lgan bosqichlarda orttirilgan bilimlarga tayangan holda oliy ta’lim muassasasida filologiya fanini yanada chuqurroq egallash va tanlangan kasbiga yo‘naltirilgan holatda o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Dastur 10.00.01 - “O‘zbek tili” ixtisosligi pasportiga tegishli bo‘lgan barcha masalalami o‘z ichiga qamrab oladi. Malakaviy imtihon dasturi 10.00.01 - “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlar uchun mo‘ljallangan.

I. Nazariy tilshunoslik masalalari

Til – belgilar tizimi. Til va jamiyat. Til va tafakkur. Tilning falsafiy va ruhiy asoslari. Qadimgi hind, arab, grek tilshunosligi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Tilshunoslik maktablari.

Tilshunoslikda psixologizm va naturalizm. Yosh grammatikachilar maktabi. Strukturalizm. Daniya struturalizmi. Praga strukturalizmi. Amerika strukturalizmi. F.Sossyurning lingvistik qarashlari. O‘zbek tilshunosligi. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Zamonaviy lingvistik yo‘nalishlar.

Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi boshqa fanlar bilan munosabati. Falsafiy kategoriyalarning tilda aks etishi. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. Zamonaviy tilshunoslikdagi ilmiy yangiliklar.

Til strukturasi nazariyasi. Izomorfizm nazariyasi. Sathlar ierarhiyasi nazariyasi. Til va mantiqiy tafakkur. Til va so‘zlashuvchining ruhiy faoliyati. Til va informatsiya uzatish.

II. Pragmalingvistika.

Pragmalingvistika fanining predmeti, uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati. Pragmalingvistika fanining predmeti va tadqiqot ob‟ekti. Axborot uzatish va qabul qilish. Kommunikativ harakatlar.Kommunikativ-pragmatik yo‘nalishning shakllanishi.

Tilning ichki shakli. Til va nutq dixotomiyasi. Lisoniy muloqot maqsadi.

Lisoniy tizim vazifalari. Pragmalingvistik tahlil. Assimilyatsiya (uyg'unlashish, singib ketish) va akkommoditatsiya (muvofiqlashish) tamoyillari. Pragmalingvistik tadqiqot. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida. Pragmalingvistikaning metodologik negizi.

Pragmalingvistikaning predmeti. Lingvopragmatika. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi. Nutqiy akt nazariyasi va kommunikativ maqsadning ifodalanishi. Nutqiy harakatlar. J.Ostin fikrlari. J.Syorlning qarashlari. Intentsional tahlil. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan iboratligi.

III. Matn tilshunosligi

Matn tilshunosligining fan sifatida shakllanishi. Matn tilshunosligi fanining yuzaga kelishi. Matn muammosi.

Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o‘rganilishi. Chex tilshunosligida matn lingvistikasi muammolari. Rus tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo‘lishi.

O‘zbek tilshunosligida matn tadqiqi. O‘zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi. Matnning lingvistik tavsifi.

Matnning tarkibiy qismlari. Matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar. Ohang. Matn birliklarining o‘zaro munosabatlari. Ichki sintagmatik munosabatlar: matn birliklarining semantik-grammatik munosabati.

Matn qismlarining vertikal munosabatlari. Matnning kategorial belgilari.

Matn tipologiyasi. Matn tiplari. Hajm belgisiga ko‘ra matn tiplari. Maksimal matn. Minimal matn. Makromatn. Mikromatn.

Matn va uslub. Matnning uslubiy xoslanishi. Matnning funksional tasnifi masalasi. Rasmiy matn va uning lingvistik tahlili. Rasmiy uslub. Ilmiy matn va uning lingvistik tahlili.

Publitsistik matn va uning lingvistik tahlili.

10.00.01 – “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) qabul imtihonini o‘tkazishda qo‘llanishi ko‘zda tutilgan nazorat savollari:

1. Fonetika
2. Nutq tovushlari. Ularning paydo bo‘lishi.
3. Nutq tovushlarining turlari, tasnifini.
4. Nutq jarayonidagi turli o‘zgarishlar.
5. Bo‘g‘in, urg‘u, ohang hodisalari.
6. Adabiy tilning talaffuz me’yorlari.
7. Unli fonemalar tasnifi.
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unli fonemalar.
9. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra unlilar.
10. Til oldi unlilari.
11. Til orqa unlilari.
12. Old qator unlilar.
13.Tilning vertikal harakatiga ko‘ra unlilar.
14. Yuqori (tor) unlilar.
15. O‘rta (o‘rta keng) unlilar.
16. Quyi (keng) unlilar.
17. Lablarning ishtirokiga ko‘ra unlilar.
18. Lablangan unlilar.
19. Lablanmagan unlilar.
20. Undosh fonemalar tasnifi.
21. Artikulatsiya (hosil bo‘lish) o‘rniga ko‘ra undoshlar.
22. Artikulatsiya (hosil bo‘lish) usuliga ko‘ra undoshlar.
23. Un paychalarining ishtirokiga ko‘ra undoshlar.
24. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar.
25. So‘z tarkibidagi turli o‘zgarishlar. Kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlari.
26. Assimilatsiya. Progressiv assimilatsiya. Regressiv assimilatsiya.
27. To‘liq va to‘liqsiz assimilatsiya.
28. Dissimilatsiya. Progressiv dissimilatsiya. Regressiv dissimilatsiya.
29. Metateza.
30. Tovush almashishi. Unlilarning almashishi. Undoshlarning almashishi.
31. Tovush tushishi. Unlilarning tushishi. Undoshlarning tushishi.
32. Tovush orttirilishi.
33. To‘g‘ri talaffuz (orfoepiya) me’yorlari.
34. Orfoepiya. Unli tovushlar orfoepiyasi. Ayrim undosh tovushlar orfoepiyasi.
35. Boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarning talaffuzi.
36. To‘g‘ri yozuv (orfografiya) me’yorlari. Fonetik prinsip. Fonematik prinsip. Morfologik prinsip. Tarixiy–an’anaviy prinsip. Etimologik yoki grafik prinsip.
37.To‘g‘ri yozuv (orfografiya) me’yorlari. Fonematik prinsip.
38. To‘g‘ri yozuv (orfografiya) me’yorlari. Morfologik prinsip.
39. To‘g‘ri yozuv (orfografiya) me’yorlari. Tarixiy–an’anaviy prinsip.
40. To‘g‘ri yozuv (orfografiya) me’yorlari. Etimologik yoki grafik prinsip.
41. Grafika.

42. Piktografik yozuv.
43. Harf va tovushlar.
44. Yozuvning asosiy xususiyatlari.
45. Yozuv tarixi.
46. O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuniga kiritilgan o‘zgarishlar.
47. Leksikologiya.
48. Lug‘at tarkibi.
49. Til birliklari. So‘zlar (leksemalar) va iboralar (frazemalar).
50. So‘z lug‘aviy boylik sifatida.
51. Frazeologik birlik.
52. Lug‘aviy birlik.
53. Leksika. Leksikaning taraqqiyoti.
54. So‘z va uning asosiy mohiyati.
55. So‘z murakkab xususiyatga ega bo‘lgan til birligi.
56. So‘zning moddiy tomoni.
57. Nomlovchi so‘zlar.
58. Ifodalovchi so‘zlar.
59. Ko‘rsatuvchi so‘zlar.
60. Olmoshlovchi so‘zlar.
61. Atovchi so‘zlar.
62. Leksik ma’no.
63. So‘zning emotsional-ekspressiv va uslubiy bo‘yog‘i.
64. Bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik.
65. Monosemiya.
66. Polisemiya. Grammatik polisemiya. Lug‘aviy polisemiya.
67. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari
68. Sinonimiya. Lug‘aviy sinonimiya. Leksik sinonimiya. Frazeologik sinonimiya. Leksik-frazeologik sinonimiya.
69. Grammatik sinonimiya. Morfologik sinonimiya. Sintaktik sinonimiya.
70. Til va nutq munosabati.
71. Tilning jamiyatda tutgan o‘rni va bajaradigan asosiy funksiyalari (kommunikativ, kognitiv, ekspressiv va h.k.).
72. Til va tafakkur munosabati.
73. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat.
74. Metafora va metonimiya.
75. Til va mantiq munosabati.
76. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari.
77. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari.
78. So‘zlar sinonimiyasi. Sinonimik qator.
79. Ideografik sinonimlar.
80. Uslubiy sinonimlar.
81. Nutqiy sinonimlar.
82. Kontekstual sinonimlar.
83. Absolyut sinonimlar.

84. Omonimiya. Lug‘aviy omonimiya. Grammatik omonimiya.
85. Antonimiya. Lug‘aviy antonimiya. leksik antonimiya.
86. Frazeologik antonimiya.
87. Leksik-frazeologik antonimiya. Grammatik antonimiya.
88. Paronim so‘zlar.
89. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari.
90. O‘z qatlam. O‘zlashgan qatlam.
91. Barqaror birikmalar. Iboralar (frazeologizmlar). Maqol va matallar. Hikmatli so‘zlar (aforizmlar)
92. Tasviriy ifoda (parafraza).
93. Leksikografiya. Lug‘atshunoslik.
94. Ensiklopedik lug‘atlar. Umumiy lug‘atlar. Xususiy (maxsus) lug‘atlar.
95. Morfemika. So‘zning morfemik tarkibi.
96. Morfema. O‘zak morfema. Affiksal morfema.
97. So‘zning morfemik tarkibidagi o‘zgarishlar. Sodda affikslar. Qo‘shma affikslar.
98. Qo‘shimcha morfemalarning turlari. So‘z yasovchi qo‘shimchalar. Shakl yasovchi qo‘shimchalar.
99. Affiksal polisemiya. Affiksal omonimiya. Affiksal sinonimiya. Affiksal antonimiya.
100. So‘z yasash usullari. Semantik usul. Fonetik usul. Abbreviatsiya usuli. Affiksatsiya usuli. Kompozitsiya usuli.
101. Grammatika. Morfologiya.
102. Grammatik ma’no va grammatik shakl.
103. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.
104. So‘z turkumlari. Mustaqil so‘zlar. Yordamchi so‘zlar. Undov so‘zlar. Taqlid so‘zlar. Modal so‘zlar.
105. Mustaqil so‘z turkumlari. Ot so‘z turkumi.
106. Mustaqil so‘z turkumlari. Sifat so‘z turkumi.
107. Mustaqil so‘z turkumlari. Son so‘z turkumi.
108. Mustaqil so‘z turkumlari. Olmosh so‘z turkumi.
109. Mustaqil so‘z turkumlari. Fe‘l so‘z turkumi.
110. Mustaqil so‘z turkumlari. Ravish so‘z turkumi.
111. Yordamchi so‘zlar turkumi. Bog‘lovchilar. Ko‘makchilar. Yuklamalar.
112. Alohida olingan so‘zlar turkumi modal so‘zlar. Undov so‘zlar. Taqlid so‘zlar.
113. Sintaksis. So‘z birikmasi. Tenglanish va tobelanish.
114. Gap. Gaplarning kuzatilgan maqsadga ko‘ra turlari.
115. Gap. Gaplarning his-hayajonga ko‘ra turlari.
116. Gap. Gaplarning modallikka ko‘ra turlari.
117. Gap bo‘laklari. Gapning bosh bo`laklari. Gapning ikkinchi darajali bo`laklari.
118. Bir tarkibli gaplar. Ikki tarkibli gaplar.
119. Uyushiq bo‘lakli gaplar.
120. Undalmali gaplar.
121. Kirish va kiritma qurilmali gaplar.
122. Qo‘shma gaplar.
123. Bog‘langan qo‘shma gaplar.

124. Ergashgan qo‘shma gaplar.
125. Qo‘shma gaplarning murakkab turi.
126. Punktuatsiya.
127. Stilistika.

10.00.01 – “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha og‘zaki suhbatni baholash me’zoni

Mazkur ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga og‘zaki ravishda javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda **4 tadan** savol bo‘lib, mazkur savollar nomzodlarning bakalavriat, magistratura va mustaqil izlanuvchilikda o‘qigan fanlari hamda tayyorlagan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan tuziladi va jami javoblar «0» baldan «100» ballgacha baholanadi.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollar uchun maksimal **15 balldan,** 4-savol uchun maksimal **55-ball** etib belgilangan.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **12-15 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **8-11 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **4-7 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-5 ballgacha** qo‘yiladi.

№	Umumiy ball	Baho	Mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1.	12-15	A’lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	14-15 13-14 12-13

2.	8-11	Yaxshi	Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	10-11 9-10 8-9
3.	4-7	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	6-7 5-6 4-5
4.	0-4	Qoni-qarsiz	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan.	0-4

Variantdagi 4-savol yuzasidan berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **40-55 ballgacha** qo‘yiladi.
2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **25-39 ballgacha** qo‘yiladi.
3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **10-24 ballgacha** qo‘yiladi.
4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-9 ballgacha** qo‘yiladi.

№	**Umumiy ball**	**Baho**	**Mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchining bilim darajasi**	**Xususiy ball**
1.	40-55	A’lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga;	50-55 44-49 40-44

			Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	
2.	25-39	Yaxshi	Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	35-39 29-34 25-29
3.	10-24	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	20-24 15-19 10-14
4.	0-9	Qoni-qarsiz	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan.	0-9

Tavsiya etilayotgan asosiy adabiyotlar

1. Соссюр де Ф. Курс общей лингвистики. М. 1977.
2. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. М. 1978.
3. Соссюр Ф. Курс общей лингвистике. М.: 1977.
4. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. М., 1975.
5. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. М.; 1971.
6. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. -М., 1960.
7. Основные направления структурализма. -М., 1964.
8. Блумфилд Л. Язык. М.,1968.
9. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. I. М., 1963.
10. Нурмонов А. Танланган асарлар. Уч жилдлик. Тошкент. 2012.

Tavsiya etilayotgan qo‘shimcha adabiyotlar

1. Jamolxonov H. O`zbek tilining nazariy fonetkasi. T.: Fan, 2009
2. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Т.: Ўқитувчи , 1992
3. Жамолхонов Ҳ . Ҳозирги ўзбек адабий тили . – Т.: Талқин , 2005
4. Миртожиев М . Ўзбек тили фонетикаси . – Т.: Университет, 1998.
5. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т, 2004.
6. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.

“Ўқитувчи”, Т., 1995.
7. Раҳматуллаев. Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари.
“Университет”, Т., 2002.
8. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
9. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий о`збек тили. «Университет», 2005.
10. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд, 1999 11. Сафарова. Р. Лексик-семантик муносабат турлари. Тошкент, 2001
11. Миртожиев М. Семасиология. – Тошкент, 2010.
12. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.
Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1995.
13. Нурмонов А.ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.
Морфология. Т.: Ўқитувчи, 2000.
14. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –“Ўқитувчи” Т., 1995.
15. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. “Ўқитувчи”, Т., 1995.
16. Rahmatullaev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. “Universitet”, T., 2002.
17. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
18. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. –Самарқанд, 1999 20. Сафарова. Р. Лексик-семантик муносабат турлари. Тошкент, 2001
19. Миртожиев М. Семасиология. – Тошкент, 2010.